

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

6

maxsus son

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqsa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

4	Musiqa ta'lmini ommaviylashtirish – shaxs rivojlanishini ta'minlashning fundamental asosi
----------	---



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

A. Qudratova N. Berdiqulova Z. Jo'rayeva B. Boltayev Sh. Mustafayev M. Maxmudova K. Suvonova	6 10 13 17 20 25	Ta'lim jarayonida funksional savodxonlikni shakllantirishning metodologik asoslari Boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ta'lim integratsiyasi mazmuni-mohiyati va uning turlari Texnologik kompetentlikni rivojlanirishda texnologiya fanlarining didaktik imkoniyatlari Millatlararo totuvlik hissini shakllantirishda badiiy to'garak rahbarining kompetentiligi "Art" pedagogikaning tarbiyaviy resurslari Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlikni rivojlanirish muammosi
---	---	---



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

H. Qoraboyev Z. Raxmanova N. Shodiyev M. Fayziyev D. Nabiyeva	29 33	O'qish darslarida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlanirishda mustaqil topshiriqlarning o'rni Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini iqtisodiy ta'limga tayyorlashning metodik asosi
G. Eshqobilova	37	Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim matematika darslarida vaqt tushunchalarini o'rgatishning uzviyligini ta'minlash
A. Karimov	41	"Qurilishda axborot texnologiyalari" fanidan amaliy va mustaqil mashg'ulotlarni tashkil etishga qo'yildagan asosiy pedagogik talablar



TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYATI

Sh. Javliyeva	45	O'qituvchilar kasbiy faoliyatini rivojlanirishning asosiy ko'satgichlari
----------------------	-----------	--



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

D. Qarshiyeva Z. Qarshiyeva E. Shavqiyev	49 53 56	Uzluksiz kasbiy rivojlanirish tizimida "kvest" darslarini loyihalash tamoyillari Bo'lajak o'qituvchining refleksiv pozitsiyasini rivojlanirish modelining tamoyillari Rangshunoslik fani bo'yicha ta'lim sifatini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalarining ahamiyati
---	-------------------------------------	--



MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

N. Shodiyev D. Nabiyeva	60	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematik ta'lim orqali ma'naviy tarbiyalash
S. Pardayev	65	Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni targ'ibot qilishda texnologik diversifikasiyaning ahamiyati
D. Nabiyeva	69	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integral yondashuv asosida ma'naviy-axloqiy kompetenliklarini takomillashtirish
S. Igamov	73	Umumiy o'rta ta'lim maktablari texnologiya darslarida xalq hunarmandchiligidagi o'rganishning o'ziga xos jihatlari

Aziza QUDRATOVA,
Samarqand davlat universiteti,
“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasи o‘qituvchisi

TA'LIM JARAYONIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotation

Maqolada funksional savodxonlik va uni shakillantirishning metodologik asosi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, muallif insonning hayoti davomida doimiy ravishda oladigan bilim, ko'nikma va malakalarini keng qamrovli hayotiy masalalar yechimini topishda va o'z faoliyatining turli sohalarida duch keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda qo'llay olishi bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Ta'lif, inson, bilim, ko'nikma, malaka, XXI asr kompetensiyalari, savodxonlik, funksional savodxonlik, ta'lif sifatini xalqaro baholash dasturlari.

В статье рассматриваются функциональная грамотность и методологические основы ее формирования. Он также обеспечивает обратную связь о способности применять знания, навыки и способности, которые человек приобретает на протяжении всей своей жизни, для поиска решений широкого круга жизненных проблем и в социально-экономических отношениях, встречающихся в различных сферах его деятельности.

Ключевые слова. Образование, человек, знания, навыки, компетенции 21 века, грамотность, функциональная грамотность, международные программы оценки качества образования.

The article discusses functional literacy and the methodological foundations of its formation. It also provides feedback on the ability to apply the knowledge, skills and abilities that a person acquires throughout his life to find solutions to a wide range of life problems and in socio-economic relations encountered in various areas of his work.

Key words. Education, people, knowledge, skills, competencies of the 21st century, literacy, functional literacy, international programs for assessing the quality of education.

Jahon hamjamiyatining jadal rivojlanishi barcha sohalarda innovatsion yondashuvni talab etadi. Rivojlangan mamlakatlarda “ta'lif” barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy omil sifatida e'tirof etilib, xalqaro tashkilotlar hamda dunyoning aksariyat mamlakatlari tomonidan 2030-yilgacha belgilangan yangi ta'lif konsepsiyasida “ta'lif sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyatga joriy etish” dolzarb vazifa etib belgilandi.

Ta'lif jarayonining xalqaro standartlarga mos kelishini ta'minlash hamda XXI asrning raqobatbardosh kadrlarini tayyorlash maqsadida ilmiy izlanishlar olib borish jarayoniga funksional savodxonlik sohasida faoliyat yuritayotgan nazariyachi olimlar va amaliyotchi pedagoglarni jalb qilish lozim.

Pedagogika fanida deyarli yangi hisoblangan “funksional savodxonlik” tushunchasi XX asrning uchinchi choragida jamiyatning postindustriya davriga o'tish bilan bog'liq

zamonaviylikning global muammolariga javoban paydo bo'lgan.

XX asrning 50-yillarida ta'lif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar tashkiloti (YUNESKO)ning tashkil etilishi munosabati bilan aholining savodxonligi muammosi xalqaro miqyosda o'rganilishi boshlangan. YUNESKOning 1958-yildagi 10-sessiyasida "matnlarni tushungan holda o'qiy oladigan va kundalik hayotining qisqa bayonini yoza oladigan odamgina savodli, faqat o'qish ko'nikmasiga ega bo'lgan odam esa yarim-savodli", deb hisoblash tavsiya etildi.

Xalqaro ekspertlarning jamiyat savodxonligini hamda ta'lif sifatini oshirish maqsida olib borilgan ko'p yillik tadqiqotlar natijasida "savodxonlik" tushunchasiga turlicha yondashuvlar ko'rib chiqildi.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida savodlilik va savodxonlik tushunchalariga quyidagicha ta'riflar berilgan:

- 1) aholi madaniy saviyasi ko'rsatkichlaridan biri;
- 2) odamning adabiy til normalariga muvofiq keladigan og'zaki va yozma nutq malakalariga egaligi;
- 3) oddiy matnlarni o'qish va yoza olish ko'nikmasiga egaligi;
- 4) muayyan soha bo'yicha bilimga egaligi (siyosiy savodxonlik, texnik savodxonlik, tibbiy savodxonlik).

"Savodxonlik" tushunchasining mazmun-mohiyati jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida uning ijtimoiy, siyosiy, ilmiy, madaniy hamda ruhiy saviyasiga bog'liq ravishda o'zgarib turadi.

Iqtisodning raqobatbardoshligi hamda jahon davlatlari darajasida innovatsiyalarda liderlikka erishish yo'lida yangi impulslarni izlash, mehnat bozori hamda biznes, yuqori texnologik ishlab chiqarish tomonidan ta'lif oldiga turli yo'nalishdagi bilimlarga ega, tanqidiy va kreativ fikrlaydigan, muammolarni anglab turli hayotiy vaziyatlarda yechimini topib, innovatsion loyihalar yarata oladigan mutaxassislar tayyorlash vazifasi qo'yildi. Savodxonlik erkinlik, iqtisodiy o'sish va sivilizatsiyaning jadal rivojlanishi bilan bog'liq.

Jahon Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD)) Xalqaro o'quvchilarini baholash Dasturi (Programme for International Student Assessment (PISA)) – 15 yoshli o'quvchilarining olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qanchalik qo'llay olishlarini baholaydi. Taqdidotining boshqa Xalqaro tadqiqotlardan farqi shundaki, u rivojlanishining ushbu bosqichida o'quvchilar uchun kelajakda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan kompetensiyalarni aniqlash muhim deb hisoblaydi.

Har uch yillik davrda o'tkaziladigan PISA tadqiqotlarida asosiy yo'nalishlar sifatida o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi tanlab olin-gan. Tadqiqot tashkilotchilari "savodxonlik" tushunchasini aslida "funksional savodxonlik" sifatida qarashadi.

PISA tadqiqoti doirasidagi topshiriqlar PISA Konsorsiumi (PISA Consortium), PISA boshqaruvi kengashi (PISA Governing Board), turli xalqaro ekspert komissiyalari ta'lif direktoratlari (OECD Direktororate for Education) va ishtirokchi mamlakatlarning yetakchi mutaxassislarini tomonidan ishlab chiqiladi.

PISA topshiriqlarining o'ziga xos xususiyati, hayotdan olinib, vaziyat tahibili (keys) shaklida taqdim qilinadi. Topshiriq sharti va savol qo'yilishi muktab darsliklaridagidan farq qiladi. Bu esa o'z navbatida ta'lif oluvchilarda "funksional savodxonlik"ni shakl-lantirishda muammolarni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lif sifatini

baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712 sonli farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktab o'qituvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarini nazorat qilish va baholashni xalqaro dasturlar asosida amalga oshirish hamda ta'lrim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish, 2030-yilga kelib, PISA Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish vazifalari kun tartibiga qo'yildi.

Mamlakatimizning ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishi quyidagi muammolar yechimini topishga imkon beradi:

- ta'lim tizimidagi bo'shlqlarni aniqlash;
- sifatli ta'limga taqdim qilish yo'llarini izlash;
- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash;
- investitsiyalarning oqimini ko'paytirish;
- raqobatbardosh kasb mutaxassislarini tayyorlash.

Xalqaro tajribalarni o'rgangan holda shuni ta'kidlashimiz lozimki, PISA xalqaro baholash tadqiqotlarida ochiq foydalanishga taqdim qilingan topshiriqlarni muhokama qilish bilan ko'zlangan natijaga erishish mumkin emas. Sababi 3 yillik davriylik bilan o'tkaziladigan tadqiqotlarda vaziyatlar (topshiriqlar) o'zgaradi. Bu esa o'quvchilarning jarayonga tayyor emasligiga sabab bo'ladi. Shu maqsadda fan o'qituvchilarida o'tilgan mavzular asosida boshqa fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda hayotiy vaziyatlar bilan bog'liq topshiriqlar tuzish ko'nikmalarini rivojlantirish kerak.

Tadqiqot ishida mamlakatimiz ta'lim shakliga yaqin bo'lgan Rossiya o'quvchilarining xalqaro tadqiqotlarda erishgan natijalari tahlil qilindi.

Matematik savodxonlik – bu insонning matematikaning ahamiyatini anglagan holda, hayotida duch keladigan turli vaziyatlarni (qurilish, savdo, tibbiyat, sayohat va b.) matematik talqin qilish va uni qo'llash qobiliyati.

- Tadqiqotga ko'ra, o'quvchilar matematik savodxonlikka quyidagi talablar qo'yiladi:
- yuzaga keladigan atrofdagi muammolarni aniqlash;
 - bu muammolarni matematika tilida ifodalash;
 - matematik faktlar va usullarni qo'llash orqali ushbu muammolarni hal qilish;
 - ishlatilgan usullarni tahlil qilish;
 - qo'yilgan muammoni hisobga olgan holda olingan natijalarni tushuntirish, talqin qilish;
 - natijalarni, yechimlarni shakllantirish, ularni ifodalash va qayd etish.

Tadqiqotning dolzarbliji shundaki, o'quvchilar matematikaning amaliy fan sifatida ahamiyatini anglamaydilar, bu esa matematik savodxonlik darajasini pasaytiradi. Amal-dagi o'rta ta'lim maktablarining matematika fani dasturida nazariy bilimlarga katta urg'u berilishi va amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv dasturida alohida soatlar ajratilmaganligi muammoni yanada chuqurlashtiradi.

Olib borilgan tajriba-tadqiqot ishlarimiz natijalari va xulosalarimizga ko'ra, ta'lim tizimida "funksional savodxonlikni" shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

a) o'quv jarayonida:

Motivatsion ta'lim muhiti yaratish.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar bazasini zamon talablariga mos yangilash. O'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlarini rag'batlantirish.

Loyiha ishi va tadqiqotlar o'tkazish asosida ta'limga tashkil qilish. Ta'limga jarayonida o'quvchining qobiliyat va imkoniyatlarini inobatga olish.

Baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Ta'limga ota-onaning ishtirokini ta'minlash.

b) tashkiliy-metodik jarayon:

Ta'limga muassasalarida "funksional savodxonlik tushunchasi, uni shakllantirish va rivojlantirish" mavzusida doimiy ilmiy-amaliy seminar, treninglar tashkil etish;

Funksional savodxonlikni shakllantirishni o'quvchiga yaqin bo'lgan muhitdan boshlash kerak. Agar hudud dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, ishlab-chiqarish, tadbirdorlik bilan shug'ullansa, demak, shu soha aynan o'sha insonga yaqin. Bola shu muhitda yashaydi va uni qalban qabul qiladi. Keyin, analogik tarzda bilimlarini qo'llay olish diapazonini kengaytirish kerak.

Umumta'limga muktablarida sinf-dars tizimidan loyihami faoliyatga tomon o'tish, fundamental bilimlarni funksional bilimlarga ko'chirish, amaliyotda faol qo'llash jarayoni orqali fanlar integratsiyasi, kesishmasida muammolar yechimining yangicha yo'llarini izlash, lozim topilsa, kashf etishga yo'naltirish kabi amaliy-metodik vazifalarni muvafiqiyatli amalga oshirishning innovatsion yo'llarini joriy etish lozim.

Funksional savodxonlik bu – bizning nimani bilishimiz emas, bilganlarimizni qanday qo'llay olishimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712 sonli farmoni QHMMB: 06/19/5712/3034-son 29.04.2019-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'limga siyatlari baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. – T., 2000.
4. Ismoilov A. <https://kun.uz/uz/news/2020/03/03/oquvchiga-yodlashni-emas-fikr-lashni-orgatish-kerak-ekspert-pisa-sinoviga-tayyorgarlik-haqida>
5. UNESCO. Revised Recommendation concerning the International Standardization of Educational Statistics. General Conference of UNESCO. Paris, 27.09.1978.
6. Образовательная система "Школа 2100". Педагогика здравого смысла: сб. мат-лов / поднауч. ред. А. А. Леонтева. – М.: Баласс, Издательский дом РАО, 2003. – С. 368.
7. Пермишова Л.М. Формирование функциональной грамотности учащихся: основы теории и технологии. Санкт-Петербург. 1998.
8. Мацкевич В., Крупник С. Функциональная грамотность // Всемирная энциклопедия: Философия. – Минск, Харвест, 2001. – С. 312.
9. Ковалёва Г.С. Что необходимо знать каждому учителю о функциональной грамотности. Вестник образования России. 2019.
10. Основные результаты Международного исследования PISA-2012, Астана – 2013 г., Официальный сайт PISA OECD <http://oecd.org/pisa>